



YOSH IJODKOR DILSHOD KARIMOV HAYOT VA IJOD YO'LIGA BIR NAZAR

Bebetova Marjona Bahriiddin qizi
Guliston davlat universiteti,
San'atshunoslik fakulteti 1-bosqich talabasi
Karimov Dilshod Mashrab o'g'li
Guliston davlat universiteti,
San'atshunoslik fakulteti o'qituvchisi,
dilshod3288882gmail.com +998906105099
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14875698>

ARTICLE INFO

Received: 11th February 2025
Accepted: 12th February 2025
Published: 15th February 2025

KEYWORDS

Dilshod Karimov, rubob prima, ijod, mukofotlar, milliy musiqa, tanlovlar, biografiya, ta'lim.

ABSTRACT

Ushbu maqola mashxur rubob prima ustasi, ustozlari va shogirlari muhabbatini qozongan ijodkor "Nihol" va "Mard o'g'lon" davlat mukofotlari sovrindori Dilshod Karimov haqida yozilgan.

Karimov Dilshod Mashrab o'g'li 1997-yil 18-iyunda Sirdaryo viloyati Guliston shahrida tug'ilgan. Yoshligidan juda ilgama chanqoq bo'lib bolalik chog'larida turli tuman sohalarda o'zini sinab ko'rgan. U ilk bor o'zining bobosiga tegishli bo'lgan hususiy "Aloqa A.K" telekanalda turli xil ko'rsatuvlarda boshlovchilik qilgan. Telekanalda 10 yoshigacha faoliyat yuritgan. 2004-yil Karimov Dilshod Sirdaryo viloyati Guliston shahridagi 16-sonli umum ta'lim maktabiga o'qishga bordi.

2007-yil 10 yoshli Dilshod telekanaldagi faoliyatni tugatib Guliston shahrida joylashgan 1-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabiga o'qishga qabul qilinib, Sunnat Alimov sinfida rubob prima cholg'u sozi bo'yicha tahsil olib boshladi. Yosh Dilshod musiqa maktabida o'qigan vaqtlarida ko'plab respublikamizda o'tkazilgan tanlov va festivallarda faol qatnashib faxrli o'rinlarni egalladi va o'zining tengdoshlaridan ancha o'zib ketdi. U rubob prima cholg'usini juda mohirona qilib ijro etar edi. Har bir ijro etgan asariga ko'tarinki ruh, mayinlik va nafislik berar edi. U ijro etgan asarlar esa o'ziga hos mahorat talab qilardi. Yosh ijodkor rubob primani qo'lga olib kuy ijro qilib boshlaganda barmoq harakati ham sezilmas, lekin ovozi butun xonani qamrab olardi. Bundan barchani kayfiyati ko'tarilar va o'zgacha tuyg'u baxsh etadi.

2013-yil Guliston san'at kollejiga o'qishga kirdi. U juda bilimcha chanqoq bo'lganligi tufayli hech narsa to'siq bo'lolmas edi. Dilshod Karimov izlanishlardan aslo to'xtamadi. U har kuni quyosh chiqib ulgurmasdanoq kollejga velosipedda yetib kelib o'z ustida ishlar edi. Dilshod Karimov ilm olishga shu darajada berilib ketganligi tufayli do'stlari bilan bekorchi vaqtini behuda o'tkazmagan va bu vaqtda do'stlari bilan vaqt o'tkazish o'rniga o'z ustida ishlash bilan mashg'ul bo'lgan. Aynan shu hislati bilan barcha ustozlarining mehriga sazovor bo'lib e'tiborini tortgan edi. Dilshod Karimov do'stlari davrasidan ajralganidan afsuslanmasdi. Chunki u juda ko'p yutuqlarga erishgandi va yanada yuqori cho'qqiga intilayotgan edi. 2015-yil madaniyat va san'at kollejlari hamda musiqa akademik litseylari o'rtasida o'tkazilgan "Yosh ijrochilar" Respublika ko'rik tanlovida ishtirok etib 2-o'rinni egalladi. "San'at maktabi

television” festivalida “Eng namunali musiqa maktabi ijrochisi” nominatsiyasi g’olibi boldi. “Sozlar navosi” Respublika ko’rik tanlovida faxrli 1-o’rinni egalladi. Tinib tinchimas Dilshod Karimov bu yutuqlardan qoniqmasdan yanada yuqorini ko’zlay boshladi. Bu ko’zlagan yo’lida yanada mashaqqat qilib ter to’kib, harakat qila boshladi. Bu harakatlar besamar ketmadi.

2016-yil Fransiyaning Parij shahrida o’tkazilgan Xalqaro “Mo’jizali Parij” masofaviy tanlovida 2-o’rinni egalladi. Huddi shu yilning o’zida yana bir tanlov Fransiyaning Parij shahrida o’tkazilgan “Battle music” masofaviy tanlovida faxrli 1-o’rinni qo’lga kiritib, festivalning 6-14-iyul kunlari bo’lib o’tgan gala konsertida ishtirok etgan. Shu yili O’zbekiston davlat san’at va madaniyat institutiga imtiyozli davlat grandisi asosida o’qishga qabul qilindi.

Dilshod Karimov o’qish davomida guruh talabalari orasida o’zining odob-axloqi, mehnatsevarligi, o’ziga nisbatan talabchanligi va jamoat ishlarida faolligi bilan talabalarga o’rnak bo’la oldi. Shuncha erishilgan yutuqlar, ustozlar mehri va e’tibori Dilshod Karimovga kamlik qildi.

2017-yil yosh istedod egasining ijodiy faoliyati yuksak baholanib “Nihol” davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Shu yilning o’zida ilk xisobot konsertini ham namoyish etdi. Dilshod Karimov izlanishlardan aslo to’xtamadi va yangi narsalarni sinab ko’rishga harakat qildi. U studio va ovoz yozish ishlarini puhta o’rgandi. Bundan keng foydalanib turli studiolarda ham faoliyat yuritib ko’rdi.

2018-yil Rossiya Federatsiyasining Qozon davlat konservatoriyasida bo’lib o’tgan V.P.Plentneva nomidagi xalqaro xalq cholg’u ijrochilari uchun bo’lib o’tgan nufuzli tanlovda 2-o’rinni egallab hakamlar hayati taklifiga binoan aynan shu shaharda bo’lib o’tgan “Fonte viva” xalqaro tanlovida qatnashib faxrli 1-o’rinni egalladi. Dilshod Karimov institutning “Yoshlar ittifoqi” tashkiloti a’zosi. Dilshod Karimov “SFORZANDO” nomli gitarachilar ansamblini va “Neo folklor” ansamblarini tashkil etdi. 2020-yil esa Sirdaryo viloyatida “SFORZANDO” o’quv markaziga asos soldi. 2021-yil iyun oyida Dilshod Karimov “Mard o’g’lon” davlat mukofotiga sazovor bo’ldi va ilk bor yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev bilan uchrashdi. Huddi shu yilning o’zida O’zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining magistratura bosqichiga imtiyozli grant asosida o’qishga qabul qilindi. 2023-yil 30-yanvar kuni marhum birinchi Prezidentimiz Islom Abdug’aniyevich Karimovning ayoli Tatyana Karimova bilan uchrashganda o’ziga tegishli bo’lgan “Nihol” mukofotining statuetkasini Islom Karimovning muzeyiga sovg’a qildi. Bu esa unga o’zgacha faxr tuyg’usini his ettirdi. Yurtboshimiz bilan uchrashuv shu bilan cheklanib qolgani yo’q. Prezidentimiz Sirdaryoga tashrifi chog’larida ko’plab tadbirlarda ko’rishish nasib qildi. Bu vaqtda studiodagi faoliyatini ham esdan chiqarmadi. Dilshod Karimov o’zining uchta jamoasini tashkil etdi. Ular “TANTANA” vokal ansambli, “SFORZANDO” instrumental ansambl va Sulton Mamatqobulovning ijod faoliyatiga yordam berib kelmoqda.

Hozirda Guliston davlat universitetida o’qituvchi lavozimida faoliyat yuritmoqda. U o’z shogirtlariga tahsil beribgina qolmay ular bilan birgalikda yangi ijod namunalari ustida ishlamoqda. Men ham Dilshod Karimovning shogirtlaridan biriman va bu menda o’zgacha faxr tuyg’usini aks ettiradi. Dilshod Karimov hozirgi yoshlarga albatta namuna bo’la oladi. Biz ustozimiz Dilshod Karimov ekanligidan g’ururlanamiz va albatta uztozimizning kelgusi ishlarida muvofaqqiyatlar tilab qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dilshod, K. (2023, April). O ‘ZBEK KINOFILMLARIDA MILLIY MUSIQALARDAN FOYDALANISH HOLATI: MUAMMO VA YECHIMLAR. In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 4-6).

2. Karimov, D. (2023, April). Muvaffaqiyat Yo 'Lim: Unda Topganlarim Va Yo 'Qotganlarim. In International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses (pp. 6-8).
3. Наримова, Г. А., Сиддикова, Н., & Саматова, Г. (2015). Различные подходы в преподавании иностранного языка студентам в неязыковых вузах. Научный альманах, (11-2), 292-296.
4. Bahadirov, N. ., Karimov, D. ., & Shukurjonova, X. . (2024). KOMPOZITOR REFAT IBADLAYEV . *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(6), 72-79. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajmrms/article/view/30166>
5. Наил , Б., Каримов, Д. ., & Шукуржонова, Х. . (2024). АРТУРО ТОСКАНИНИ . *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(6), 65-71. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajmrms/article/view/30160>
6. Ibroximovna, M. S. (2024). FACTORS OF DEVELOPING OF INTERCULTURAL COMMUNICATION COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH TO CADETS OF MILITARY UNIVERSITY. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 15(1), 159-163.
7. Musayeva, S. I. (2024, May). DEVELOPMENT OF INTERCULTURAL COMMUNICATION COMPETENCE OF CADETS USING INTERACTIVE METHODS. In Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (Vol. 3, No. 5, pp. 276-284).
8. Bebetova , M. ., & Karimov , D. . (2024). DUTORCHI SOZANDALAR IJODIGA BIR NAZAR. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(17), 28-30. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajmrms/article/view/40804>
9. Djurayev, M., & Husenov, J. (2022). STUDIES IN GEOGRAPHY, CONFLICTS AND SOLUTIONS IN APPLIED GEOGRAPHY. *Journal of Geography and Natural Resources*, 2(01), 24-28.

INNOVATIVE
ACADEMY